

Monogramma-motiv yaratish

Ulug'bek Karimjonovich Xuramov

<https://orcid.org/0000-0001-5756-2467>

xuramov_ulugbek@mail.ru

Termiz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada monogramma haqida, ayniqsa kompozitorlarning ijod qilishida monogramma usulidan foydalanib musiqa yaratishlari haqida o'zbek tilida ilk ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Malumotlarni shunchaki tarjima qilish bilan kifoyalanmasdan, balki, keltirilgan ma'lumotlarni qisqacha tavsifi ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: monogramma, initials, nemis usuli, fransuz usuli, "erkin, lekin yolg'iz"

Creating a monogram motif

Ulugbek Karimjonovich Khuramov

<https://orcid.org/0000-0001-5756-2467>

xuramov_ulugbek@mail.ru

Termez State Pedagogical Institute

Abstract: This article presents the first information in the Uzbek language about monograms, especially about composers using the monogram method in their work to create music. It does not limit itself to just translating the information, but also provides a brief description of the information provided.

Keywords: monogram, initial, German method, French method, "free but alone"

Monogramma ikki yoki undan ortiq harflarni yoki boshqa grafemalarni bir-birining ustiga chiqishi yoki birlashtirib, bitta belgini hosil qilish orqali yaratilgan motivdir. Monogramma so'zi yunoncha so'zlar birikmasi hisoblanadi. Ya'ni monos - bir va grammo - harf so'zlaridan olingan. Shuningdek monogramma - shaxsning ism va familiyasining bosh harflari bir-biriga bog'langan, bir-birining yonida joylashgan yoki bir-biriga kiygizilgan holatlarda keladigan qisqartma tuzilishidagi belgi hisoblanadi. Shaxslarning ism va familiyasining bunday ko'rinishi hozirgi kunda lotincha so'zdagi "initialis" ya'ni "boshlang'ich", "bosh harflar" ma'nosini beradigan initials so'zi bilan ham ifodalanadi. Monogrammadan nafaqat shaxslarning ism va familiyalari balki, boshqa bir narsa-buyum, manzil-makonlarni ham nomlarini ifodalashda foydalaniladi. Ba'zi manbalarda monogrammadan foydalanish VII asrdan

boshlangan degan farazlar mavjud. Shohlar, davlat ayonlari o'zlarining farmonlariga, xatlariga qo'yadigan muhrlarida monogrammadan foydalanishgan. Ba'zilarida esa miloddan avvalgi yillarda paydo bo'lgan rim tangalarini monogrammaning ilk ko'rinishlari sifatida misol keltirishadi. Hozirda esa kiyim, uy jihozlari, idish va barcha ishlab chiqarish sanoat mahsulotlarini qasyi korxonaga, muallifga taalluqli ekanligini aks ettirgan belgilar juda avj olgan.

San'atda ham monogramma sifatli belgilardan, motivlardan foydalanish o'z taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Tasviriy san'at asarlardagi ko'zga tashlanmaydigan joylarida, ayniqsa burchaklarida qo'yilgan monogrammadan muallifning kimligini aniqlash mumkin bo'ladi. Rassomlar bundan hozirda ham foydalanib kelishmoqda.

Musiqqa sohasida ham monogrammadan foydalanib ko'plab ijodlar amalga oshirilgan. Musiqiy monogramma odatda notalar va harflar o'rtasidagi o'rnatilgan ma'lum qoidaga asoslangan notalar ketma-ketligidir. Ba'zi manbalarda musiqiy monogramma "musiqiy anagram" yoki "onomafoniya" atamallari bilan ham tariflanadi. Eng keng tarqalgan va taniqli misollar kompozitorlarning o'zlarining shifrlangan ismlari yoki do'stlarining ismlarini mavzu yoki motiv sifatida ishlatgan asarlaridir. Musiqiy tovushlarni harflar orqali biriktirilib ifodalanishi go'yoki yashirin alifbo orqali sirli ma'lumotlarni doklashdek ko'rinishi ham mumkin. Kimlardir, qachonlardir ushbu maqsadda foydalangan bo'lishi mumkin. Bu shunchaki farazlardan biri. Shu farazlarga asoslanib rejissorlar kinolar ham ishlashgan.

Musiqiy monogrammani hosil qilish yoxud harflarni ma'lum tovushlarga moslashtirish usullari juda ko'p bo'lgani uchun yashirin kodlarni topish va ularni aniq dekodlash vazifasi yetarlicha qiyin vazifalardan biri hisoblanadi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak aslida musiqiy tovushlar ilgari harflar orqali ifodalangan. Keyinchalik tovushlarni aniq balandligini, cho'zimini va shu kabi mukammal ifodalash uchun maxsus nota yozuvi shakllanib taraqqiy etdi. Balki shuning uchun ham harfiy notatsiya musiqiy shifrlashning eng oddiy va eng aniq usulidir. Alifbo orqali notalarni qayd qilishning turli sxemalarini X asrga taalluqli noma'lum mutafakkirning "Dialogus de musica" risolasida topish mumkin. Yangi yozuvlarning paydo bo'lishi bilan shifrlashning turli usullari qo'llanila boshlandi. Biroq, musiqiy monogrammalar XIX asr bastakorlarining ijodida keng tarqalgan. Yuqorida takidlaganimiz alifbo orqali monogramma hosil qiladigan bo'lsak yettita tovushga yettita harflar, ya'ni A, C, D, E, F, G, H harflari bilan kifoyalanib qolinadi. Bu esa ijodiy yondashuvga birmuncha noqulaylik tug'diradi. Shu kabi muammolarni bartaraf etish va ijodiy mustaqillikni ta'minlash uchun bugungi kunga kelib monogramma asosiy ikkita usul orqali amalga oshiriladi, bular nemischa va fransuzcha usullarga farqlanadi.

Monogrammaning nemis usulida C dan B gacha bo'lgan yozuvlar lotin harflari C, D, E, F, G, A, H bilan belgilanadi. Bu tizimda si tovushi H bilan belgilanga, si-bemol B harfi bilan belgilanadi. Bunday monogrammaning eng mashhur namunasi B-

A-C-H motividir, uni Iogann Sebastyan Bax, shuningdek, uning zamondoshlari va keyingi bastakorlar ishlatgan. Boshqa nota nomlari ularning talaffuzidan olingan, masalan, Eb, nemis yozuvidagi Es, S ni, Ab As ni ifodalashi mumkin. Robert Shumann o'zining pianino miniatyuralari "Karnaval" turkumiga o'z nomini imzolash uchun faqat S-C-H-A (Eb, C, H $\flat$, A) dan foydalangan.

Fransuz usuli

Monogrammani yaratishning frantsuz usuli XX asr boshlarida paydo bo'lgan. U A-G, H-N, O-U va V-Z harflarini A-G notalarining nomlari ostidagi qatorga quyidagicha yozishdan hosil qilindi:

A B C D E F G

A B C D E F G

H I J K L M N

O P Q R S T U

V W X Y Z

Shunday qilib, asosiy harf chizig'i ostida uchta qatorda yozilgan bir nechta harflarga mos keladi. A, H, O va V harflari lya tovushi bilan, B, I, P va W harflari esa si yoki si-bemol notasi va hokazolar bilan shifrlangan.

Eng mashhur monogrammalarni ko'rib chiqamiz.

A, B, H $\flat$, F = A, B, H, F

Alban Berg tomonidan Hanna Fuchs-Robettinga bag'ishlangan Lirik Suitada ishlatilgan. Bunda muallif o'zining hamda Hannaning initsiallaridan ya'ni A.B. va H.F. harflaridan foydalanib lya, si-bemol, si bekar va fa tovushlaridan monogramma motiv yaratgan.

A, B, E, G, G = A, B, E, G, G

Mete Abeggga bag'ishlangan, Robert Shumann tomonidan ABEGG mavzusidagi Variatsiyalarni ham misol qilishimiz mumkin. Robert do'sti Abeggning ismidagi harflardan foydalanib A = lya, B = si-bemol, E = mi, G = sol va yana G = sol tovushlaridan monogramma motiv yaratgan.

A, Eb, C, H $\flat$ = A, S, C, H va Ab, C, H $\flat$ = S, C, H

Robert Shumann tomonidan qo'shaloq monogrammadan fortepiano uchun "Karnaval" deb nomlangan turkumli asarida foydalangan. Ya'ni A = lya, S (harfining fonetik almashuvi Es ga to'g'ri keladi) = mi-bemol, C = do, H = si va S (harfining fonetik almashuvi As ga to'g'ri keladi) = lya-bemol, C = do, H = si tovushlaridan iborat.

A, Eb, C, H $\flat$, B, E $\flat$, G = A, S, C, H, B, E, G

Arnold Schonberg tomonidan o'zining familiyasidagi harflaridan monogramma motiv sifatidan foydalangan. E'tiborli tarafi shundaki familiyasidagi r harfiga xech qanday tovushni biriktirmagan. Ya'ni A = lya, S (harfining fonetik almashuvi Es ga

to'g'ri keladi) = mi-bemol, C = do, H = si, B = si-bemol, E = mi, G = sol tovushlaridan iborat. Bunday usulda monogramma yaratish nemis uslubiga xosligidan dalolat beradi.

B, A, H, E $\flat$ = B, r, A, H, m, Es

Alfred Shnitke o'zining skripka va fortepiano uchun yozilgan 2-sonatasini Iogannes Bramsga bag'ishlagan. Bunda B-A-C-H monogramma motividan ham foydalangan. Bramsning familiyasidagi harflarga monogramma tuzishda nemis uslubiga murojaat qilgan. Ya'ni B = si-bemol, r harfi tushurib qoldirilgan, A = lya, H = si, m harfi tushurib qoldirilgan, S yoxud Es = mi-bemol tovushlaridan iborat.

H, A, D, D, G = H, A, Y, D, N

Yo'zef Gaydnaga bag'ishlangan, Moris Ravel tomonidan Menuetda Gaydn familiyasidagi harflardan foydalanilgan. Ravelning ushbu monogrammasi H = si, A = lya, Y = re, D = re, G = sol tovushlaridan iborat. Gaydn familiyasidagi y harfiga re tovushini biriktirishi fransuz uslubidan dalolat beradi. Mazkur monogrammadan ko'rinib turibdiki nemis uslubiga nisbatan fransuz uslubida monogramma yaratish imkoniyati ancha kengligini ko'rishingiz mumkin.

B, A, F = B, Lya, F

Mitrofan Belyaevga bag'ishlangan monogrammadan Rimskiy-Korsakov, Borodin, Lyadov va Glazunovlar tomonidan o'zlarining torli kvartetlarida foydalanishgan. Mazkur monogrammadagi nota tovushlari harflarining fonetikasi Mitrofan familiyasining fonetikasiga moslashtirilgan. Ya'ni B = si-bemol, A = lya, F = fa tovushlaridan iborat.

B, D, G $\sharp$, A, C, F = B, Re, Gis, La, Do, Fa

Nikolay Myaskovskiy o'zining Anatoliy Lyadovga bag'ishlangan kvartetida monogramma harflarini "Lyadovdan ehtiyot bo'ling" iborasidan olgan. Ya'ni B = si-bemol, D = re, G $\sharp$ = sol-diyez, A = lya, C = do, F = fa tovushlaridan iborat.

C, A, F, F, E, E = K, A, F, F, E, E

Eduard Markson o'zining fortepiano uchun kofe ichimligiga bag'ishlangan hazilomus fantaziyasida ham o'zgacha yo'l tutgan. Shuning uchun ham Marksonning asarlari ichida mazkur Kofe asari shuhrat qozondi. Asar monogrammasi C = do, A = lya, F = fa, F = fa, E = mi, E = mi tovushlaridan iborat.

C, A, G, E = C, A, G, E

Polin Oliveros va Simon Jefflar tomonidan amerika kompozitori Jon Keyjga bag'ishlab yaratilgan "Cage Dead" deb nomlangan asarida ham monogrammadan foydalanishgan. Bu asarda kompozitorlar Jonning familiyasi asosida monogramma yaratishgan. Ya'ni mazkur monogramma C = do, A = lya, G = sol, E = mi tovushlaridan iborat.

D, E $\flat$, C, H = D, S, C, H

Sovet kompozitori Dmitriy Shostakovichning initials asosidagi monogramma ham ko'plab kompozitorlar tomonidan foydalanilgan. Mazkur monogrammaning

mashhur bo'lishida ko'plab kompozitorlar o'z hissalarini qo'shishgan. Monogramma D = re, S = mi-bemol, C = do, H = si tovushlaridan iborat.

E, A, E, D, A = E, La, Mi, Re, A

Dmitriy Shostakovich o'zining shogirdi Elmira Nazirovaga bag'ishlab monogramma asosida 10-simfoniyasini yaratadi. Mazkur simfoniya monogrammasi E = mi, La = la, Mi = mi, Re = re, A = la tovushlaridan iborat. Monogrammaning harfiy ishorasi esa E, A, E, D, A harflaridan tashkil topgan.

F, A, E

Robert Shuman boshchiligida, Iogan Brams va Albert Ditrixlar hammualliflikda avtriya-vengriya mashhur skripkachisiga bag'ishlab sonata yaratishadi. Asar skripka va fortepiano uchun yozilgan va Sonata F-A-E deb nomlangan. Mazkur asar monogrammasi avtriya-vengriya mashhur skripkachisi Yozef Ioxamning "erkin, lekin yolg'iz" shiorining nemis tilidagi so'zlarning "Frei aber einsam" bosh harflaridan olingan.

Yuqorida keltirib o'tilgan monogramma motivlar orqali musiqiy ijodiyotning qanchalik cheksizligini anglashimiz mumkin. Mazkur yo'nalishda ijod qilgan kompozitorlar o'zlarining asarlari orqli insoniyatning erki, tafakkuri, ongi aks ettirilgandir. Ayniqsa insonlar o'rtasidagi o'zaro mehr-oqibatni qadriga yetish, e'zozlash kabi tuyg'ular ilgari surilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xuramov U. B. K. MUSIQA ASARLARIDAGI DAVRIYA TURLARI //Oriental Art and Culture. - 2022. - T. 3. - №. 4. - C. 198-204.
2. Karimjonovich K. U. THE IMPORTANCE OF TEACHING MUSIC THEORY IN MUSIC EDUCATION //Academia Repository. - 2023. - T. 4. - №. 9. - C. 4-12.
3. Xuramov U. B. K. YOSH MUSIQACHI O 'QUVCHILARDA MAQOM VA UNING USULLARI HAQIDAGI BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH NE CHOG 'LI AHAMIYATLI //World of Philology. - 2023. - T. 2. - №. 4. - C. 25-33.
4. Xuramov U. B. K. VENA KLASSIK MAKTABI YETAKCHISI FY GAYDNNING IJODIGA BIR NAZAR //Oriental Art and Culture. - 2023. - T. 4. - №. 5. - C. 200-207.
5. Khuramov U. K. FORTEPIANO IJROCHILIGIDA GAMMA YORDAMIDA MAQOM USULLARINI O'RGATISH METODLARI. - 2022.
6. Хурамов У. К. ЗНАЧЕНИЕ АНАЛИТИЧЕСКОГО МОДУЛЯ ПРИ АНАЛИЗЕ МУЗЫКАЛЬНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ //American Journal of Innovation in Science Research and Development. - 2024. - T. 1. - №. 3. - C. 190-196.

7. Xuramov U. B. K. OVOZ YOXUD TOVUSH VA UNI YOZIB Olishning TARIXIY TARAQQIYOTIGA QISQACHA TAVSIF //Oriental Art and Culture. - 2024. - T. 5. - №. 1. - C. 238-249.
8. XURAMOV U. ZAMONAVIY NOTA YOZUVIGA QISQACHA TAVSIF //O 'zbek musiqiy merosining ta'lim tizimidagi o 'rni va ahamiyati. - 2023. - T. 1. - №. 4. - C. 160-166.
9. Xuramov U. B. K. QADIMIY O 'RTA OSIYO XALQ KUYLARINI TASHKIL ETUVCHI QISMLARIGA QISQACHA TAVSIF //World of Philology. - 2023. - T. 2. - №. 4. - C. 40-48.
10. Karimjonovich X. U. B. ZAMONAVIY NOTA YOZUVIGA ASOSLANGAN NOTA YOZUVI //Science and innovation. - 2023. - T. 2. - №. Special Issue 14. - C. 453-462.
11. Karimjonovich X. U. QADIMIY KUYLAR VA ULARNI TASHKIL ETUVCHI QISMLAR //Scientific Impulse. - 2023. - T. 1. - №. 7. - C. 74-81.
12. Xuramov U. K. et al. QADIMGI KUY NOMLARI //Oriental Art and Culture. - 2024. - T. 5. - №. 6. - C. 390-399.
13. Karimjonovich K. U. et al. Sherna bakhshi's work and its place in sherobod school of friendship //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. - 2021. - T. 25. - №. 4. - C. 13413-13417.
14. Khuramov U. K. Formation, development and history of harmony //Theoretical & Applied Science. - 2019. - №. 12. - C. 77-82.
15. Karimjonovich X. U. Important importance of elementary theory of music in the field of music education // Таълим ва ривожланиш таҳлили онлайн илмий журнали. - 2022. - C. 200-204.
16. Khuramov U.K. Processes of formation of performance traditions in folk instruments // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. 2021. № 9. C. 186-192.
17. Karimjonovich X. U. DAVRIYADAGI KADENSIYA TURLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. - 2025. - T. 63. - №. 2. - C. 361-372.